

## INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATION METHODS IN ENGLISH CLASS

*Abdurahmonova Mehrangiz Bahriiddin qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich talim yo'nalishi*

*Qayumova Mohinur Murodullayevna*

*Ilmiy rahbar: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti ingliz fani o`qituvchisi*

*@mexrangizabduraxmonova5@gmail.com*

*mohinurqayumova10@gmail.com*

*+998 99 176 62 33*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilaming til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun ingliz tili o'qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.

**Annotation.** This article focuses on effective, modern and innovative methods of teaching English to increase students' interest in learning the language in elementary grades.

**Kalit so'zlar:** aralash texnika, qiziqarli o'yinlar, boshlang'ich sinflar, zamonaviy innovatsion metodlar, pantomima.

**Keywords:** mixed technique, interesting games, primary classes, modern and innovative methods, pantomime.

**Kirish.** mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi oshdi va davlatimiz tomonidan til o'rganishga ko'plab imkoniyatlar yaratilmoMamlakatimizqda. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o'zlashtirishga o'rgatishdir. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o'qitishning yangi shakllari va usullari, o'quv jarayoniga yangicha yondoshishdir.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi proffessional ta'lanning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'larning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning

amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lif dasturlarini yechishga qodir bo'ladi.

Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi. Zamon ilgarilab borgani sari har sohada yangilik ko'payib bormoqda. Til o'rgatishda ham turli uslublar paydo bo'lmoqda. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlarga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomondan maxsus dastur ishlab chiqiladi.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto, olimlar bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtirishni isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir.

Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda. Native speakerlar agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkin. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'ribor talaffuzga qaratiladi. Bunda native speakerlarning turli xil audiolardan faydalanish yaxshi natija beradi. Birinchi bosqichda og'zaki nutqqa va o'qish texnikasini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bunda chet tilini o'qitishning nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni o'rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- a) O'qish mexanizmini hosil qilish;
- b) Og'zaki o'qish texnikasini o'stirish;
- c) O'qiganini tushunishga o'rgatish.

Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyos. Texnologik m. vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapishtida foydalilanadi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirib bo'lmaydi. Tinglab tushunish-til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lif jarayonida zamonaviy

texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalana o'rgatish va o'rganish eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin; - chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniyedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; - CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari j arayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

"Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash J-jt uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; - "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar; - "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi

Ta'lif jarayonida o'tkaziladigan treninglarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta'lilda har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytamizki hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy yurtlari talabalriga balki MTT tarbiyalanuvchilariga chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirib borish kerak. Bu orqali rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish, jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va ma'suliyatli vazifadir. Til o'rganish yosh davrlarga bog'liq jarayon hisoblanib, bolalar tilni kattalarga nisbatan tez va oson o'zlashtiradilar. Maktabgacha yoshdagи bolalar so'zlarni ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:**

1. Astafieva M.D. Holidays for children learning English. - M.: Mozaika-sintez, 2009.
2. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Theory and practice of teaching foreign languages. 3. Primary school: methodological guide.-M.: Iris-press, 2004.
4. Guseva L.P. We play, teach, master - we want to know English. - Rostov n / a: Phoenix, 2009.
5. Zemchenkova T.V. English for preschool children. - M.: VAKO, 2008.
6. Ivanova M.V. English for children. - M.: AST: Astrel, 2009.
7. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2007.
8. Weinreich U. Languages in Contact. - New York, 2007.
9. Muxlisa, Sobirjonova, and Qayumova Mohinur. "LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI." Евразийский журнал академических исследований 2.3 (2022): 379-383.
10. Qayumova, Mohinur Murodullayevna. "THEORETICAL-METHODOLOGICAL ANALYZE OF COSMOS AND INDIVIDUAL ON CONTEXT OF EXPERIMENTAL SCIENCE." Интернаука 28 (2018): 77-79.
11. Ergashovna M. G. TYPES OF FABRICS AND THEIR ANALYSIS //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 59-61.
12. Qayumova, Mohinur Murodullayevna, Muhlisa Sobirjonovna Sobirjonova, and Feruz Qurbonaliyevich Saidov. "Galileo's influence on John Milton concept "individual". Similarities and differences between the outlook of Galileo and John Milton." Science and Education 2.6 (2021): 494-498.